

---

# XODIMLAR UCHUN TURISTIK YO'LLANMALARNI SOTIB OLISH XARAJATLARI ULARNING DAROMADI SIFATIDA KO'RIB CHIQILMAYDI



## **Xodimlar uchun turistik yo'llanmalarni sotib olish xarajatlari ularning daromadi sifatida ko'rib chiqilmaydi**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3514-sonli qaroriga binoan ichki turizm sohasida 2025-yil 1-yanvargacha quyidagi tartib joriy etilgan:

ish beruvchining turizm sohasida faoliyat ko'rsatish bo'yicha litsenziyaga ega bo'lgan sub'ektlardan xodimlar va ularning oila a'zolari uchun respublika bo'ylab turistik yo'llanmalarni sotib olish xarajatlari xodimning daromadi sifatida ko'rib chiqilmaydi hamda yuridik shaxsdan olinadigan foyda solig'ini hisoblab chiqishda chegirib qolinishi lozim;

jismoniy shaxslarning soliqqa tortiladigan daromadlari O'zbekiston bo'ylab turistik yo'llanmalarni turizm sohasida faoliyat ko'rsatish bo'yicha litsenziyaga ega bo'lgan sub'ektlardan sotib olishga yo'naltirilgan xarajatlar summasiga kamaytiriladi;

Bunda turistik yo'llanma (ayirboshlanadigan vaucher), avia va temir yo'l chiptalari, avtotransport tashkilotlarining hisob-fakturalari (chiptalari) va joylashtirish vositalari cheklari tasdiqlovchi hujjatlar hisoblanadi.

**Shoxrux Sobirov - Rishton tuman adliya bo'limi bnsn huquqlarini himoya qilish va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish bo'linmasi bosh maslahatchisi**

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-05-16 20:32:21